

TURKISTON O‘LKASIDAGI AGRAR SIYOSAT VA UNING OQIBATLARI

I.M. Xaydarov

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

Email: izzatillakhon@gmail.com,

Karimov Jonibek Jo‘rabek o‘g‘li

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

karimovjonibek56@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida olib borgan agrar siyosati, uning asosiy maqsadlari va yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada yerlarning davlat mulkiga aylantirilishi, mahalliy aholining yerga egalik huquqlarining cheklanishi, soliq tizimidagi o‘zgarishlar hamda vaqf va xususiy yerlarning huquqiy maqomidagi o‘zgarishlar batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, 1886- va 1900-yillardagi “Nizom”lar orqali amalga oshirilgan agrar islohotlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ham yoritiladi. Umuman olganda, maqola Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosati mustamlakachilik xarakteriga ega bo‘lganini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *Rossiya imperiyasi, Turkiston, agrar siyosat, yer-suv munosabatlari, mustamlakachilik, paxta yetishtirish, sug‘orish tizimi, rus ko‘chmanchilari, yer islohoti, 1886-yil Nizom, 1900-yil Nizom, vaqf yerlar, davlat yerlari, soliq tizimi, agrar o‘zgarishlar.*

Annotation: *This article examines the agrarian policy of the Russian Empire in the Turkestan region, as well as its main objectives and directions. It analyzes in detail the transformation of land into state property, the restriction of land ownership rights of the local population, changes in the taxation system, and the transformation of the legal status of waqf and private lands. The article also discusses the agrarian reforms implemented through the “Regulations” of 1886 and 1900, along with their socio-economic consequences. Overall, the study demonstrates that the agrarian policy of the Russian Empire in Turkestan had a colonial character.*

Keywords: *Russian Empire, Turkestan, agrarian policy, land and water relations, colonialism, cotton production, irrigation system, Russian settlers, land reform, Regulation of 1886, Regulation of 1900, waqf lands, state lands, taxation system, agrarian changes.*

Аннотация: *В данной статье освещается аграрная политика Российской империи в Туркестанском крае, а также её основные цели и направления. В статье подробно рассматриваются вопросы превращения земель в государственную собственность,*

ограничения прав местного населения на владение землёй, изменения в налоговой системе, а также трансформация правового статуса вакуфных и частных земель. Кроме того, анализируются аграрные реформы, проведённые на основе «Положений» 1886 и 1900 годов, и их социально-экономические последствия. В целом, в статье обосновывается, что аграрная политика Российской империи в Туркестане носила колониальный характер.

Ключевые слова: *Российская империя, Туркестан, аграрная политика, земельно-водные отношения, колониализм, хлопководство, ирригационная система, русские переселенцы, земельная реформа, Положение 1886 года, Положение 1900 года, вакуфные земли, государственные земли, налоговая система, аграрные изменения.*

Kirish: Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar siyosatidan ko‘zlangan bosh maqsad va asosiy yo‘nalishlarni Davlat mulklari va ziroatchilik vaziri A. V. Krivoshein quyidagicha ifodalagan: “Bu markaziy masalada uch jihat mavjud. Agar birinchisida yorqin qilib “Paxta” deb yozilgan bo‘lsa, ikkinchisida “Sug‘orish” va nihoyat, uchinchisida unchalik ko‘zga tashlanmasada, aslida eng muhimi “ruslarni ko‘chirib kelib joylashtirish” deb yozilgan”⁴⁸.

Asosiy qism: Yer-suv munosabatlarida chor hukumat ikki maqsadni ko‘zlab ish tutgan. U O‘rta Osiyoda o‘z hukmronligini mustahkamlash va uning iqtisodiy imkoniyatlaridan mustabid Rossiyaning hukmron tabaqalari manfaatlarini yo‘lida foydalanishga intilgan. Shu maqsadlar uchun mahalliy hukmron doiralarning qarshiligini sindirish, o‘lkada amalda bo‘lgan qadimiy munosabatlarni saqlab qolish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga imkon bermaslik kerak edi.

Uzoqni ko‘zlangan maqsaddan kelib chiqqan holda Rossiya Turkistonda olib borgan yer-suv munosabatlarida quyidagi siyosatni o‘tkazdi:

1. O‘lkadagi barcha yerlar davlat xazinasiga tegishli, deb e‘lon qilindi. O‘troq mahalliy aholiga yer merosiy yakka jamoa egaligi tariqasida, ko‘chmanchi aholiga esa muddati cheklanmagan tarzda jamoa bo‘lib foydalanish uchun topshirildi.

2. O‘troq joylarda yer undan amalda foydalanayotganlarga birlashtirildi. Bu tartibga binoan sud organlariga yer-suvga oid munozarali masalalarni hal etishda qozilar tomonidan berilgan yerga egalik qilish haqidagi hujjatlarga – vasiqalarga tayanmay, aksincha, yerda kim amalda foydalanayotganiga qarab ish tutish lozimligi haqida ko‘rsatma berildi. O‘rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingunga qadar katta yer egalari dehqonlarga ijaraga bergan yerlar endilikda ijarachilarga merosiy tarzda foydalanishga topshirildi. Chor hukumatining yer-suv sohasidagi bunday “tantiligi”ning sababi, birinchidan, Rossiyaning dastlabki yillarda

⁴⁸ X. Содиқов, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов. Ўзбекистоннинг янги тарихи., – Т.: Шарқ, 2000. – В. 214.

ko‘chirish ehtiyojlari uchun zarur yer jamg‘armasiga muhtoj bo‘lmaganligi, ikkinchidan, bu sohada o‘ziga raqib bo‘lgan mahalliy zodagonlar bilan kurashda keng mehnatkashlar ommasini betaraf qilib qo‘yish edi.

3. Ko‘p hollarda vaqflar avvalgi tarzida qoldirildi, ammo ayrim hollarda vaqf yerlarini davlat ixtiyoriga olish ham mumkinligi belgilandi.

4. Sobiq imtiyozli shaxsiy mulk yerlariga boshqalar qatori soliq solindi. Ular endi xususiy mulk emas, balki davlat yerlari deb ataldi va dehqonlarga merosiy ravishda egalik qilish va foydalanishga topshirilgani ma‘lum qilindi.

5. Shahar tashqarisida rus aholiga yer ajratish ham taqiqlanadi.

6. Yevropaliklar, xususan, ruslar tomonidan mahalliy aholiga qarashli yerlarni sotib olish mutlaqo man etildi. Bu taqiq 90-yillar oxirigacha o‘z kuchini saqlagan.

1886-yilgi “Nizom”da mahalliy aholining yerga egalik qilishi “odat bo‘yicha”deb belgilangan bo‘lsada, uning yerga qonunan xo‘jayin yoki xo‘jayin emasligiga doir aniq ta‘rif kiritilmadi. Podsho hukumati Turkiston o‘lkasidagi o‘troq aholining yerlarini qishloq jamoalari va qishloqlarga biriktirib, soliq yig‘ishda “doiraviy javobgarlik”ni joriy etdi. Bunda soliq birligi sifatida avvalgidek yakka hovli xo‘jalik emas, balki butun qishloq yoki jamoa olindi. Rus amaldorlari kambag‘allar uchun ularning boy qarindoshlari yoki hamqishloqlari uning solig‘ini to‘lab yuborishlarini bilib, shu odatni qonunlashtirdilar. Ko‘pincha soliq yig‘uvchilarning o‘zlari kambag‘allarning solig‘ini to‘lab, keyin uni ortig‘i bilan undirib olishgan⁴⁹.

Turkistonni ruslashtirish siyosatida keskin burilish 1892-yilda boshlandi. Xuddi shu yili Rossiyadan o‘zboshimchalik bilan ko‘chib kelgan minglab “kelgindilar” ham ma‘muriyat nazorati bilan kelganlar qatori ularga berilgan huquqlardan foydalanishlari mumkinligi joriy qilindi. XX asr boshida rus kelgindilarining soni 175 mingdan oshib ketdi. Turkiston aholisining atigi 5 foizini tashkil etuvchi rus mustamlakachilari qo‘liga ekin ekiladigan hosildor yerlarning 60 foizi berib qo‘yilgan edi.

Ta‘kidlash joizki, Rossiyaning o‘zida, uning markaziy rayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol yaxshi emas edi. Bu holat ham chor ma‘murlarini ko‘chirish siyosatini olib borishga majbur qilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos sabablari mavjud edi. Tarixdan ma‘lumki, 1861-yilda Rossiyada agrar islohot o‘tkazilib, bu islohotdan so‘ng qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholining katta qismi yerlardan bo‘shab, shaharlarga kelib joylasha boshladi. Rossiya shaharlarida mavjud bo‘lgan sanoat korxonolari esa qisqa muddat ichida yangi ishchilarni ish bilan ta‘minlashga qodir emas edi. Bu holat esa o‘z-o‘zidan Rossiya shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqardi. Shuningdek, ilgari qishloq xo‘jaligi ishlari bilan

⁴⁹ X. Содиқов, Р. Шамсутдинов, П. Равшанов. Ўзбекистоннинг янги тарихи., – Т.: Шарқ, 2000. – В. 215.

shug‘ullangan, sanoat ishlab chiqarishda malaka va tajribaga ega bo‘lmagan “sobiq dehqonlar” ishsizlar sonini ko‘paytirishga yoki boshqa o‘lkalarga ko‘chib ketishga majbur edilar (N. Musayev).

Yuqoridagi sabablar va holatlarni imperiya ma’murlarining o‘zlari ham e’tirof etganlar. Xususan, Turkiston o‘lkasida maxsus ko‘rsatma bilan taftish ishlari olib borgan K. K. Palen Rossiya imperiyasining Turkistonda bu yo‘nalishdagi ko‘zlagan manfaatlarini quyidagicha ifodalaydi: “Bu o‘lka Rossiyaga qo‘shilgan kundan boshlab rus hukumatini ikki tomonlama: 1) moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlatning daromad manbai va mahsulotlar uchun yangi bozor sifatida; 2) mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan aholini joylashtirish uchun yangi viloyat sifatida qiziqtiradi.”⁵⁰

Rossiya imperiyasi Turkiston hududini egallagandan so‘ng, o‘lkadagi agrar va yer munosabatlarini o‘z manfaatlariga moslashtirishga harakat qildi. Shu sababli dastlabki yillardanoq mahalliy aholining yerga egalik qilish va undan foydalanish tartiblarini o‘rganishni boshladi.

Yer munosabatlarini o‘zgartirishga dastlabki urinishlar Turkistonning birinchi general-gubernatori K. P. Kaufman tomonidan boshlandi. Jumladan, u 1867-yil 1-sentabrdagi o‘lkani boshqarish to‘g‘risidagi dastlabki loyihada yer munosabatlariga oid quyidagi choralarni ko‘zda tutgan: Turkiston o‘lkasida ma’lum bir shaxs tomonidan foydalanilayotgan yerlardan tashqari barcha yerlarni davlat yerlari deb e’lon qilish; vaqf yerlarini kim foydalanayotgan bo‘lsa, o‘sha shaxs ixtiyorida qoldirish, biroq shu bilan birga ularni davlat foydasiga musodara qilishga ruxsat berish.

Shuningdek, barcha mulk yerlarini soliq solish orqali odatiy yer egaligi shakliga o‘tkazish kabi o‘zgarishlar kiritish taklif etiladi. 1868-yil 3-yanvarda esa K. P. Kaufman harbiy qo‘mita a’zosi M. N. Nikolaevga xat yozib, undan Turkiston mahalliy aholisining yerga egalik turlarini aniqlash va o‘rganishni so‘raydi.

M. N. Nikolaev bu xatga javoban o‘zining takliflarini bildiradi. Uning takliflari hududdagi yer egaligi va undan foydalanish tartiblariga o‘zgartirish kiritishni nazarda tutgan. Jumladan, uning takliflarining qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat edi:

Qo‘lida yerga egalik qilishni tasdiqlovchi hujjati bor mulk yerlaridan tashqari barcha yerlarni davlat yerlariga o‘tkazish;

Yer avval kim tomonidan foydalanilgan bo‘lsa, o‘shaning tasarrufida qoldirish;

Davlat yerlaridan foydalanuvchi har bir shaxs soliq to‘lashi lozim;

⁵⁰ O‘zbekiston tarixi. II-jild. Toshkent, 2019. – B. 216.

Mulk huquqidagi barcha yerlarda amir yoki xon muhri tushirilgan hujjat bo‘lishi shart edi. Shu bilan birga, ushbu hujjatning nusxasi amir yoki xon arxivida saqlanishi kerak edi. Agar hujjatning nusxasi arxivda bo‘lmasa, ushbu yer davlat (amlok) yeriga o‘tkazilishi;

Xiroj yoki tanob solig‘idan faqat mustamlaka ma‘muriyatining viloyat boshqarmasi tomonidan berilgan hujjatga ega yerlar ozod qilinishi;

Xiroj va tanob soliqlarini pul shaklidagi soliq bilan almashtirish.

1873-yilda maxsus komissiya tuzilib, u “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom loyihasini ishlab chiqadi. Komissiya yerni mahalliy aholiga xususiy mulk sifatida emas, balki doimiy foydalanish uchun berish kerak, degan xulosaga keladi.

Keyingi yillar davomida 1886-yilgi Nizomning yer munosabatlariga oid bandlariga bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, 1900-yil 10-iyunda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi navbatdagi Nizom ishlab chiqildi.

1886-yilgi Nizomda Turkiston o‘lkasining Samarqand, Farg‘ona va Sirdaryo viloyatlari aholisi faqat sug‘oriladigan yerlarga avloddan avlodga o‘tish orqali egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi belgilangan bo‘lsa, 1900-yilgi Nizomda sug‘oriladigan yerlar bilan bir qatorda lalmikor hamda “o‘lik” yerlarga ham mahalliy aholining egalik qilishi va ulardan foydalanishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.⁵¹

Bu esa lalmikor yerlardan foydalanuvchilarga o‘sha yerga egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat rasmiylashtirish va ushbu yer uchun soliq to‘lash majburiyatini yuklagan. Boshqa tomondan, ushbu o‘zgartirish mustamlaka ma‘muriyati olib borgan siyosatning ayrim jihatlariga zararli deb topilgan va shu bois u Rossiya imperiyasi davridagi ayrim tadqiqotchilar tomonidan tanqidga uchragan.

Shuningdek, agrar munosabatlardagi yangi tartiblar O‘rta Osiyo xonliklari davrida amalda bo‘lgan yer turlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda amlok (davlat) va vaqf yerlar bir qancha o‘zgarishlar bilan bo‘lsa-da, saqlanib qolganini ko‘rish mumkin. Biroq mulk, ya‘ni xususiy yerlar mazkur davrda mavjud bo‘lganmi yoki yo‘qmi, degan savol ochiq qolmoqda.

Xulosa. 1886-yilgi Nizomda “xususiy yer” yoki “xususiy mulk” degan iboralar uchramaydi. “Turkestanskije vedomosti” gazetasining 1903-yil 47-sonida aynan shu masalaga bag‘ishlangan maqola chop etiladi. Unda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizomning 255-bandida mahalliy o‘troq aholining yerga nisbatan huquqi mahalliy odat asosida doimiy va nasldan naslga o‘tish orqali egalik qilinishi, foydalanilishi va tasarruf etilishi qayd etilgani aytiladi.

⁵¹ Mirzaeva N.J., Ma'rufov Sh.K. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi tarixi. O'quv qo'llanma. - Guliston, 2023. – B. 19.

Ammo 259-bandda faqat foydalanish huquqi qolganini ta’kidlaydi. Shu sababli u mahalliy aholining yer huquqi cheklangan degan xulosaga keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. R.H. Murtazayeva va boshq. – 2-nashr, to’ldirilgan va qayta ishlangan. O‘zbekiston tarixi. II-jild (XIX asr II yarmi – 1991-yil – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2019. – 720 b.
2. Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. va boshq. (tuzuvchilar). Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 464 b.
3. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida: Ikkinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2011. – 720 b.
4. Mirzaeva N.J., Ma'rufov Sh.K. Mirzacho'lning o'zlashtirilishi tarixi. O'quv qo'llanma. - Guliston, 2023. - 78 b.